
ZAMONAVIY KO'RINISHDAGI YANGI BOG'CHA FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Toshloq tumanidagi Furqat mahalla fuqarolar yig'inida loyiha qiymati 6 milliyard 540 million so'm mablag' evaziga 400 o'rinli zamonaviy bog'cha binosi foydalanishga topshirildi. 2-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining tantanali ochilish marosimida mahalla faollari, nuroniylar hamda muassasa xodimlari ishtirok etdilar.

Dastlab tuman hokimi Abduqaxxor Djurabayev so'zga chiqib, yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tdi. Jumladan, tumanda har yili bir nechta yangi bog'chalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi natijasida bolalar qamrovi ortib bormoqda. Ushbu foydalanishga topshirilayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti ham ertamiz egalari uchun uzoq yillar xizmat ko'rsatib, porloq kelajaklariga zamin yaratashini ta'kidladi.

Tadbir ishtirokchilari binoda bolajonlarga muhayyo etilgan shart-sharoitlar bilan tanishar ekan, bu yerda yosh avlod uchun barcha qulayliklar yaratilganiga guvoh bo'lishdi. Xususan, xorijiy tillarni o'rganish va boshqa yo'nalishlarda muassasa barcha zarur adabiyotlar hamda multimedia jihozlari bilan ta'minlangan.

2022-10-21 18:29:05